

KULOLLIK IDISHLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR**Normurodova Farangiz Xolmurodovna**

JDPI ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi I-bosqich magistranti.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT POTTERY VESSELS**Normuradova Farangiz Kholmurodovna**

Master of Methods of Teaching Social Sciences and Humanities, JDPI, Phase I.

Bizga ma'lumki, yurtimizda hunarmandchilik, xususan uning kulolchilik sohasi qadimdan taraqqiy etgan. Ajdodlarimiz kundalik hayot uchun zarur bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari va o'zlarinig turli jihozlarini yasab, shu orqali odamlarga naf keltirishni qadriyat darajasiga ko'targanlar. Hunarmandchilikning u yoki bu yo'nalishini bir oila vakillarining asosiy mashg'ulotiga aylanishi mohir hunarmand sulolarni, joylarda esa o'ziga xos maktablarni vujudga kelishiga zamin hozirlagan. Xuddi shuningdek, kulolchilikda ham mashhur sulolalar va maktablar vujudga kelgan.

Birinchi Prezidentimizning 1997-yil 31-martdagи “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi va Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tamonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari yurtimizda hunarmandchilikni xususan, kulolchilikni yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar kulolchilik tarixini jiddiyroq o'rganishimizga ijobiy tasir ko'rsatayotir.

Moddiy-madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilar tomonidan yaratilgan boyliklar bo'lib qolmasdan, balki inson aql-zakovati, hayoti to'g'risidagi tasavvurlarni o'zida aks ettirib beruvchi ko'zgu ham hisoblanadi. Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan hunarmandchilik juda qadim zamonalardagi mehnat jarayoning taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan, shu jumladan hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik ham.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik na'munalarini yaratuvchi Sharqning eng qadimiy va navqiron san'ati hisoblanadi. Paydo bo'lishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqdan kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Ma'lumki, kulolchilik san'ati bilan jahondagi barcha xalqlar shug'ullanadi, lekin ular bir-biridan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi.

Kulolchilik san'ati qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil, Yunoniston va Xitoyda yuksak taraqqiyotga erishgan. Kulolchilik buyumlari sopol va keramika deb atalmish chinni, fayan va mayolikalardan tayyorlanadi. Sopoldan turli xil buyumlar tayyorlash bilan birinchi bo'lib misrliklar shug'ullangan bo'lib, ular mil.avv. IV ming yillikda dastlabki sopol buyumlarni yasay boshlaganlar. Sopoldan buyum ishlab chiqarish sirlarini xitoyliklar milodiy asr boshlaridayoq bilishgan. “Mayolika” so'zi Ispaniyadagi Mayorka oroli va “fayans” so'zi Italyadagi Faens shahri nomlaridan olingan¹.

Dastlabki davrlarda bu hunar bilan faqat ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi mil.avv. III-ming yillik boshlarida ixtiro qilinganidan so'ng bu soha bilan endi erkaklar ham shug'ullana boshlaganlar. Maxsus tuproqni qizdirganda toshsimon bo'lib pishishi va undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar qadim davrlardan, ya'ni neolit davrining boshlaridayoq bilishgan. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tuqvoqlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirila boshlangan².

Neolit davrida odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni ist'emol qilmasdan, endi o'zlarini ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlaganlar. Kulolchilikning paydo bo'lishi ham neolit asrining muhum ixtorosi va belgisidir, ko'pincha uni “keramika asri” deb atalishi ham bejizga emas. Bu davrda yasalgan idishlarni tagi uchli qilib tayyorlangan bo'lib, yerga sanchib qo'yishga qulay bo'lgan. Shuningdek,

¹ Мирзаахмедов Д.К. Глазурованная керамика Бухары XIX вв / Из истории культуры Бухары. Ташкент, 1990. 36-б.

² <https://hozir.org/Kulolchilik>. 18.04.2022

bu davrda kulolchilik buyumlarini naqsh bilan bezash keng tus olgan bo'lib, xususan sopol idishlar parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, konsentrik aylanalar bilan bezatilgan, geometrik naqshlar asta-sekinlik bilan odam, hayvon, o'simliklar dunyosidan olingen shakllar bilan boyitilib borilgan. Misol uchun, rozetika-quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi hisoblangan. Eneolit davriga kelib Sharq mamlakatlari va Yunonistonda nafis kulolchilik idishlarini yasash rivoj topgan va memorchilikda sopoldan keng foydalanila boshlangan. Bronza davriga kelib O'rta Osiyoda kulolchilik yanada taraqqiy etgan. Ayrim hududlarda kulolchilik dastgohlarining vujudga kelishi sopol buyumlarining tekis va nafis ko'rinishga kelishini ta'minlagan. Temir asrida kulolchilik buyumlari qo'lida va dastgohlarda yasalgan bo'lib, bu buyumlar yuzasini bezashda o'yma va bo'rtma naqshlar, band va tepe qismi uchun haykalchalar ishlatala boshlangan³.

Arxeologik izlanishlarlar IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda kulolchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi, biroq XIII asrda mo'g'llar hujumlari oqibatida bu soha nisbatan sekin rivojlangan. Temur va Temuriylar davrida kulolchilik XIV-XVI-asrlarga kelib ancha taraqqiy etgan. Biroq, O'rta Osiyoning bo'linib ketishi o'zaro aloqalar susayishini keltirib chiqarsada lekin bu kabi omillar hunarmandchilikning ayniqsa, kulolchilikning rivojlanishiga to'siq bo'la olmadi. Joylarda kulolchilikning turlicha uslublari vujudga keldi. Xalq ustalari ko'plab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezaganlar.⁴

Kulolchilik san'ati asari sirlangan va sirlanmagan ish uslublari asosida yuzaga keladi. Ma'lumki, sirlanmagan idishlarning tarixi qadimiyoq bo'lib, dastlabki davrlarda sirlanmagan kulolchilik idishlari keng tarqalgan. Sirlash usullarining kashf etilishi bilan esa kulolchilik idishlarining badiiy qiymati yanada orta borgan⁵.

O'rta Osiyo moddiy madaniyatida muhum o'rin egalovchi sirlangan kulolchilik idishlari doimo mutaxasislar va keng jamoatchilikning diqqat-markazida bo'lib kelgan. Bu kabi manbalar numizmatik va boshqa tanishuv manbalari mayjud bo'limganda ko'pincha xronologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kulollarning sirlangan mahsulotlarida belgilar anqlik bilan ishlangan. Bu esa madaniy va iqtisodiy munosabatlar va mahalliy badiiy an'analarning o'zaro bog'liqligini o'rganish imkonini beradi⁶.

Dastlab kulolchilik buyumlarida sirli rasm ostida yashil-ko'k rangga ega bo'lган yashil va bulutli oq sirlar ustunlik qilgan. VIII-IX asr oxirlariga kelib keramika mahsulotlarini bezashning tabiatini va texnikasida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. X-XII asrlarda O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda kulolchilik buyumlarining murakkab va xilma-xil shakllarining paydo bo'lishi, ularning dizayni va sifatini rivojlanishiga turtki bo'lgan. XI-XII asrlar esa, yangi texnologik o'zgarishlarning boshlanish davridir.

O'rta Osiyo shaharlariga Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlari hunarmandchiligining kirib kelishi natijasida yaqin savdo, madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatiladi. Bu esa kulolchilikning rivojlanishiga ham katta tasir ko'rsatadi. Mazkur jarayon nafaqat mahsulotlarni dekarativ qayta ishlashda, balki birinchi nabatda texnologik usullarda ham o'z aksini topgan. O'rta Osiyolik hunarmandlar kulolchilik hunarmandchiligidagi uning bo'yoqlash texnologiyasi rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Mintaqaning alohida hunarmandchilik markazlarida yuqori sifatli mahsulotlarga talab katta bo'lgan. Misol uchun, o'rta asr tarixchisi Makdisi yuqori sifatga ega bo'lgan Shosh kulolchiligining mashhurligi haqida yozib qoldirgan. Shuningdek, samarqandlik ustalarning ajoyib kulolchilik buyumlari ham Shosh va Marv hunarmandlarining kulolchilik buyumlaridan qolishmagan⁷.

Mamlakatimizning markaziy qismida joylashgan Ustrushona yodgorliklarida o'rganilgan sopol idishlar orasida xurmachalar ko'pchilikni tashkil etib, ular ancha pishiq va silliq yasalgan. Bu idishlar o'z tashqi ko'rinishi jahatidan ayrim hollarda ko'zalarga o'xshab ketsada, o'zining gardish aylanasi kengligi bilan farq qilgan. Barcha sopol idishlar kabi xurmachalarni pishirish ham sifatli tarzda amalga oshirilgan. Xurmachalarning ko'pchiligi girdi g'um-pastbo'yli, tagdoni tekis va keng, og'iz qismi bilan tagdonining diametri bir-biriga mos. Ularga chizma naqshlar berish uchun to'lqinsimon va to'g'ri chiziqlardan

³ <https://uz.wikipedia.org> Kulolchilik. 18.04.2022

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent Davlat ilmiy nashriyoti.2005, 126-b.

⁵ <https://www.muhaz.org> Qadimgi sopol idishlar.Risola. 20.04.2022

⁶ Шишкина Г.В.Глазурованная керамика Согда (вторая половина VIII-начала XIII в). С. 3.

⁷Сайко Э.В. История технологии керамического ремесла Средней Азии VIII-XII вв. С. 4.

foydalaniman. Bu chiziqli bezaklar o'tkir uchli asbob yordamida idishning hali qotib ulgurmagan sirtiga chizilgan⁸. Ayrimlariga esa umuman bezak berilmagan. To'lqinsimon chiziqlar taroqsimon ko'rinishda amalga oshirilgan. Ko'pincha to'lqinsimon chiziqning ikki tomonidan xuddi shunday ko'p qatorlik, biroq to'g'ri – gorizontal chiziqlar o'tkazilgan. Ba'zi idishlar gardishining pastki, bo'yin qismiga o'yib xoch shakli tushirilgan. Ushbu xurmachalarga o'xhash sopol idishlar avvalo Qovunchi madaniyatiga tegishli sopol idishlarga juda o'xhash. Mazkur xurmachaga o'xhash idishlar O'rta Osiyoning shimoliy mintaqalarida keng yoyilgan ko'chmanchilar moddiy madaniyatida ko'plab uchraydi. Ularga asoslanib bu xurmachalarni milodiy eraning I- III asrlari bilan davrlash mumkin.

Arxeologlar tomonidan o'rganigan ba'zi kulollik idishlarining tutqichi bo'rtib chiqqan bo'lib, uning shakli qo'zichoqning bosh qismiga o'xshatib yasalgan. Bu kabi zoomorf dastali sopol idishlar O'rta Sirdaryo bo'yalaridagi Qang' davriga oid kulollik mahsulotlarida ko'p uchraydi. Ko'za sifatli tarzda mayin qilib, o'troq aholi ustalari tomonidan kulollik charxida yasalgan bo'lsa-da, uning tag va ust qismlari proporsionalligi, zoomorf tutqichli ekanligiga asoslanib, unda ko'chmanchilarga xos belgilarni ko'rish mumkin. Ehtimol, u endi o'troqlasha boshlagan ko'chmanchilarning o'z ustalari yoki ularning buyurtmasi asosida, o'troq aholi hunarmandlari tomonidan yasalgan bo'lishi mumkin.

Mozorqo'rg'onlarda ba'zi ko'zachalar kulollik charxida sifatli, mayin tuproq- loyidan yasalgan bo'lib, loy tarkibiga boshqa aralashma qo'shilman, xumdonda sifatli qilib, hamma joyi bir xilda pishirilgan. Idishning sirti jigarrang angob bilan bo'yalgan. Angob ba'zi joylarga qalin berilgan. Idishning bo'yniga yaqin joyida valiksimon bo'rtma aylana o'tkazilgan, og'iz gardishi sirtga biroz qayrilgan. Bu idish og'iz gardishining diametri tag qismi diametridan ancha katta. Bu toifadagi ko'zalarda ko'proq o'troq hayot sohiblari tomonidan ishlab chiqarilgan sopol idishlarga xos xususiyatlar mavjud. Chunki ko'chmanchilar sopol buyumlarining tag va ust qismlari ko'pincha bir-biriga proporsional bo'ladi. Arxeolog F.E. Toshboyevning tadqiqotlarida kulollik idishlaridagi o'troq va ko'chmanchi madaniyatiga tegishli xususiyatlarning aralash holda uchrashi sabablari, Ustrushona mozorqo'rg'onlari misolida bat afsil asoslab berilgan⁹.

Bu ko'zalar o'z tuzilishi va yasalish xususiyatiga ko'ra Bishkent vodiysidagi mil.avv. II-I asrlarga oid Aruktov va Babashevskiy mozorqo'rg'onlaridan, So'g'd vohasidagi Kushonlar davriga oid Ko'ktepa shaharchasidagi qabrdan topilgan sopol idishlarga o'xhash. Idishlardagi bunday o'xhashlik Farg'ona vodiysi yodgorliklaridagi sopol idishlarda ham mavjud. Ko'zalarning gardishi tik, uchi to'mtoq, xiyol tashqariga qayrilgan, tagdoni tekis, yassi, tanaqismi uzunchoq-dumaloq shaklda. Bundan tashqari, mozorqo'rg'onlardan xumcha, piyola, qozon, yog'log'i (krujka), mustaxara (flaga) kabi idishlar ham o'rganigan. Bu sopol idishlar mozorqo'rg'onlar davriy sanasini belgilashda ustivor xususiyatlarga ega, L.M. Levinaning O'rta Sirdaryo bo'yi sopol idishlari klassifikatsiyasida, Qovunchi madaniyatining birinchi va ikkinchi bosqichlarida Sirdaryoning quyi qismidan kirib kelgan "Jeti-Osor" jamoalarining ta'siri kuchli bo'lganligi, uchinchi bosqichda esa, hududga o'troq voha So'g'd ta'sirining kuchayganligi to'g'risidagi fikrini tasdiqlaydi. Yuqorida sanab o'tilgan moddiy manbalarga ega mozorqo'rg'onlar, antik davrda O'rta Osiyoga ko'chmanchilarning navbatdagi ommaviy kirib kelishi va Ustrushona hududida yashagan chorvador jamoalarining yashash tarzi, madaniyati, xo'jaligi va jamiyat tuzilishi haqida bizga ko'plab ma'lumotlar beradi.

O'rta asr hunarmandlari tomonidan yasalgan kulolchilik buyumlari qadimgi va o'rta asr davlatlarining tarixi, iqtisodiyoti, madaniyatini o'rganish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun rivojlanishning turli bosqichlarida kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyatlarini o'rganish juda zarur¹⁰.

VIII asr oxiri IX asr boshlarida Movorounnahr shaharlarida sirlangan sopol buyumlar yasala boshlangan va keng tarqalgan. Bular oq yuzali sopol bo'lib, idishlar iliq qizg'ish, pushtirang, shuningdek yashiltop zaytun

⁸ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг куллолчилик идишлари хақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тарихчилар талқинида. Самарқанд. 2016. Б. 52.

⁹ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. Т.: "Тафаккур қаноти", 2014. Б. 89.

¹⁰ Сайко Э.В. История технологии керамического ремесла Средней Азии VIII-XII вв. С.3.

tusli ko'rinish kasb etgan. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda u haqiqiy badiiy san'atga aylanadi va yuqori texnik sifatga erishadi¹¹.

Samarqandda antik davr va ilk o'rta asrlarda sirlangan kulolchilik buyumlari bo'lмаган. VIII asr oxiridan Samarqandda va O'rta Osiyoda sirlangan kulolchilik ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlangan. VIII asrda tizimli, arzon va chiroyli idish-tovoqlarga bo'lgan katta talab texnik jihatdan zamonaviy sirlangan kulolchilikning keng tarqalishiga olib keladi, lekin kulollarning birinchi tajribalari hali ham nomukammal ko'rinishda bo'lgan. VIII asr oxiri va IX asr boshlaridagi sirlangan kulolchilik buyumlari V-VII asrlardagi badiiy metallarning texnikasi va shaklini o'zlashtirgan. Bu davrdagi sirlangan buyumlar zangori rangga bo'yagan, qizil, sariq va jigarrang bo'yoq davr oxirida paydo bo'lgan.

I.A Suxarev Samarqandda sirlangan kulolchilikning paydo bo'lishini VIII- asrning 20-yillariga to'g'irlab, uni arablar istilosini natijasida deb hisoblaydi. A.I Terenojkin Afrosiyobda arxeologik tadqiqotlarni olib borib Samarqanda sirlangan idishlarni vujudga kelishini VIII-asrning o'rtalari degan xulosaga kelgan. E.V Sayko samarqandliklar tomonidan sirdan foydalanish bo'yicha birinchi tajribalarida Eron sosoniyulari davri sirlangan kulolchiligidan foydalanilgan deb hisoblanilgan R.Ettingauzenning topilmalariga ishora qiladi. Dastlab kosa va laganlar bo'yoq chayqalishi, yon tomonlariga osilgan chiziqlar bilan va alohida doiralar bilan bezatilgan. Keyingi davrlarda sopol shakkari va sirlangan idishlarni bezash usullari ishlab chiqilgan¹².

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan joylarda kulolchilik taraqqiy etgan bo'lib. Qoratog', Panjikent, G'urumsaroy, Samarqand, Kitob, Shahrabsabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezashning o'ziga xos usullari vujudga kelgan. Bu markazlarda tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko'r kam naqshlari bilan kishi diqqatni tortadi. Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o'zgarishlar kiritgan¹³.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda hunarmandchilik xususan, kulolchilik qadimdan taraqqiy etgan. Ajodolarimiz kundalik hayotda asqotadigan jihozlarni tayyorlashgan, shu orqali o'z mehnatlari bilan odamlarga naf keltirishni qadriyat darajasiga ko'targanlar. Qadimgi davr tarixini tiklashda sopol idishlarning oldiga tushadigan buyumlar topilmaydi, shuning uchun ham bugungi kunda kulolchilik tarixi va uning taraqqiyotini o'rganish davlatchilik tariximizni ochilmagan qirralarini yoritib berishimizda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
2. Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг кулолчилик идишлари ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тарихчилар талқинида. Самарқанд. 2016.
3. Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. Т.: "Тафаккур қаноти", 2014.
4. Мирзаахмедов Д.К. Глазурованная керамика Бухары XIX вв / Из истории культуры Бухары. Ташкент, 1990.С.36.
5. Шишкина Г.В.Глазурованная керамика Согда (вторая половина VIII-начала XIII в).С. 3.
6. Сайко Э.В. История технологии керамического ремесла Средней Азии VIII-XII вв.
7. Тошхужаев Ш.С.Художественная поливная керамика Самарканда.

Internet manbalari:

1. <https://hozir.org/Kulolchilik>. 18.04.2022
2. <https://uz.wikipedia.org/Kulolchilik>. 18.04.2022

¹¹ <https://www.prom.uz> Kulolchilik-O'zbekiston xalq amaliy san'atining eng qadimiylarini turlaridan biri.

¹² Тошхужаев Ш.С. Художественная поливная керамика Самарканда 6-8 б.

¹³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Toshkent Davlat ilmiy nashriyoti 126-b.

-
- 3. <https://www.muhaz.org> Qadimgi sopol idishlar Risola. 20.04.2022
 - 4. <https://www.prom.uz> Kulolchilik-O'zbekiston xalq amaliy san'atining eng
 - 5. qadimiy turlaridan biri. 20.04.2022.